
RISHTONLIKLARGA YANA BIR QULAYLIK YARATILIB, YANGI “AGRO MARKAZ” ISHGA TUSHDI

Rishton tumanidagi Bo'ston mahallasida joylashgan “Bo'ston Baraka Market” MChJ ko'p tarmoqli bo'lib, yoshlar markazi, oziq-ovqat va xo'jalik mollari do'koni, milliy taomlar oshxonasi, va boshqa bir qator faoliyatlarini yo'lga qo'ygan. «Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankining Rishton tumani filiali tashabbusi bilan «Bo'ston Baraka Market»ning faoliyat turi yana bittaga ko'payib, “Agro markaz” o'z faoliyatini boshladi.

Ushbu “Agro markaz” tomonidan tumandagi fermerlar, dehqon xo'jaliklari, klasterlar va tomorqa yer egalari uchun keng ko'lamdagi agro xizmatlar taqdim etilmoqda. Eng muhimi, ushbu markaz ularni uzog'ini yaqin qilish va qulaylik yaratish maqsadida tashkil etildi. “Agro markaz”da arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, mineral o'g'it shuningdek, agro texnika vositalarini sotish yo'lga qo'yilgan. Markazda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar esa maxsus o'quv kursalarini tamomlashdi. Bugun ushbu “Agro markaz”ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda tuman hokimi, mahalla faollari va nuroniylar ishtirok etishdi. Tadbirga yig'ilganlar markaz faoliyati hamda u yerda mijozlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Loyiha qiymati 1,5 mlrd. so'm bo'lib, 15 ta ish o'rni yaratildi.

2022-06-01 05:54:37